



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 336 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	



MAKTAB DIREKTOR O'RINBOSARLARINING AKSIOLOGIK KOMPETENSIYASINI DIAGNOSTIKA QILISH MEZONLARI

Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li

Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilishning nazariy-metodologik asoslari, mezonlari, ko'rsatkichlari va amaliy vositalari tahlil qilinadi. Aksiologik kompetensiya rahbarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, ularni boshqaruv qarorlariga tatbiq etish, pedagogik jamoa hamda o'quvchilar bilan munosabatlarda adolat, mas'uliyat, insonparvarlik va hamkorlik tamoyillarini namoyon qila olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda mazkur kompetensiyani baholash uchun kognitiv-aksiologik, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-boshqaruv, kommunikativ-axloqiy va refleksiv-rivojlantiruvchi mezonlar tizimi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: aksiologik kompetensiya, diagnostika, mezon, indikator, direktor o'rinbosari, maktab boshqaruvi, qadriyat, pedagogik monitoring, refleksiya, axloqiy liderlik, kasbiy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations, criteria, indicators, and practical tools for diagnosing the axiological competence of school deputy principals. Axiological competence is interpreted as a leader's ability to understand national and universal values, apply them in managerial decision-making, and demonstrate the principles of justice, responsibility, humanism, and cooperation in relationships with teaching staff and students. The study proposes a system of cognitive-axiological, motivational-value, activity-management, communicative-ethical, and reflexive-developmental criteria for assessing this competence.

Key words: axiological competence, diagnostics, criterion, indicator, school deputy principal, school management, value, pedagogical monitoring, reflection, ethical leadership, professional development.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические основы, критерии, показатели и практические инструменты диагностики аксиологической компетентности заместителей директора школы. Аксиологическая компетентность трактуется как способность руководителя осознавать национальные и общечеловеческие ценности, применять их в управленческих решениях, а также проявлять принципы справедливости, ответственности, гуманизма и сотрудничества во взаимоотношениях с педагогическим коллективом и обучающимися. В исследовании для оценки данной компетентности предлагается система когнитивно-аксиологических, мотивационно-ценностных, деятельностно-управленческих, коммуникативно-нравственных и рефлексивно-развивающих критериев.

Ключевые слова: аксиологическая компетентность, диагностика, критерий, индикатор, заместитель директора школы, управление школой, ценность, педагогический мониторинг, рефлексия, нравственное лидерство, профессиональное развитие.

KIRISH

Zamonaviy maktab boshqaruvi rahbarlardan faqat tashkiliy-huquqiy bilim, rejalashtirish va nazorat ko'nikmalarini emas, balki murakkab pedagogik vaziyatlarda qadriyatlarga tayangan holda qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etadi. Maktab direktorining o'rinbosari pedagogik jamoa, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy boshqaruv subyektlaridan biridir. Uning kundalik faoliyatida adolat, halollik, insonparvarlik, mas'uliyat, bag'rikenglik va hamkorlik kabi qadriyatlarning amaliy ifodasi maktabdagi ma'naviy-psixologik muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aksiologik kompetensiya rahbarning qadriyatlarni bilishi bilangina cheklanmaydi. U qadriyatlarning mohiyatini tushunish, ularni boshqaruv maqsadlari bilan uyg'unlashtirish, pedagogik vaziyatni axloqiy mezonlar asosida baholash, manfaatlar to'qnashuvi sharoitida muvozanatli qaror qabul qilish hamda o'z xatti-harakat-

larini refleksiv tahlil qilishni ham qamrab oladi. Shu sababli aksiologik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash oddiy bilim testi orqali emas, balki shaxsning munosabati, qarorlari, xulq-atvori va boshqaruv amaliyotini kompleks ravishda o'rganishga xizmat qiluvchi diagnostika vositalari orqali amalga oshirilishi lozim.

Pedagogik diagnostika rivojlanish holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va keyingi takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish esa ularning kasbiy faoliyatida qadriyatlar qanchalik ongli, izchil va barqaror namoyon bo'layotganini aniqlash imkonini beradi. Bunday diagnostika jazolash yoki reyting tuzish vositasi emas, balki kasbiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi, ilmiy asoslangan rivojlantiruvchi mexanizm sifatida tashkil etilishi zarur.

Ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini faqat hujjatlar ijrosi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yoki tadbirlar soni bilan baholash yetarli emas. Maktabning haqiqiy sifatini jamoada shakllangan ishonch, adolat hissi, o'zaro hurmat, pedagoglarning tashabbuskorligi, o'quvchilarning xavfsizligi hamda rahbariyat qarorlarining ma'naviy asoslanganligi ham belgilaydi. Ushbu sifatlar direktor o'rinbosarining aksiologik kompetensiyasi bilan uzviy bog'liq. Raqamli axborot oqimining kuchayishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va qadriyatlar raqobati sharoitida maktab rahbarining mas'uliyati ortib bormoqda. U turli qarashlar, ehtiyojlar va manfaatlarni umumiy pedagogik maqsad atrofida birlashtira olishi, o'quvchilarning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishi, jamoada axloqiy me'yorlarning buzilishiga nisbatan asosli munosabat bildirish lozim. Bunday faoliyat spontan tarzda emas, balki shakllangan aksiologik tafakkur va kompetensiya asosida amalga oshiriladi.

Direktor o'rinbosarlarining kasbiy malakasini oshirish dasturlarida boshqaruv, huquqiy savodxonlik, metodik rahbarlik va monitoring masalalariga e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, qadriyatlarga asoslangan qaror qabul qilish, axloqiy liderlik va refleksiv o'zini o'zi baholash yo'nalishlari har doim ham yetarlicha diagnostika qilinmaydi. Natijada malaka oshirish mazmuni real kasbiy ehtiyojlardan uzilib qolishi mumkin. Aniq mezon va indikatorlarga asoslangan diagnostika esa har bir rahbarning kuchli hamda rivojlantirilishi zarur bo'lgan jihatlari aniqlash imkonini beradi.

Aksiologik kompetensiya ichki va ko'p qirrali hodisa bo'lgani sababli uni faqat deklarativ fikrlar orqali baholash ishonchli natija bermaydi. Rahbar so'rovnoma adolat va insonparvarlikni yuqori qadrlashini bildirishi mumkin, biroq amaliy vaziyatda biryoqlama yoki manfaatparast qaror qabul qilishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun bilim, munosabat, xulq-atvor, boshqaruv qarorlari va refleksiyani qamrab oladigan ko'p metodli diagnostika tizimini ishlab chiqish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadriyatlar nazariyasining falsafiy asoslari M. Scheler, H. Rickert va N. Hartmann asarlarida ishlab chiqilgan. Ushbu olimlar qadriyatlarning inson faoliyatini yo'naltiruvchi, tanlov va baholash mezonlarini shakllantiruvchi mohiyatini ochib berganlar ^[1; 2].

M. Rokeach qadriyatlarni shaxsning barqaror e'tiqodlari tizimi sifatida talqin qilib, terminal va instrumental qadriyatlarni farqlagan ^[3].

S. Schwartz esa qadriyatlarning motivatsion tabiatini hamda turli madaniyatlarda namoyon bo'ladigan umumiy tuzilishini asoslagan ^[4].

Pedagogik aksiologiya masalalari V.A. Slastenin, I.F. Isayev, E.N. Shiyanov va Z.I. Ravkin tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Ularning ishlarida pedagogik faoliyat qadriyatlar almashinuvi, shaxsiy ma'no hosil qilish va insonparvar munosabatlarni shakllantirish jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi ^[5; 6].

D.A. Leontyevning shaxsiy ma'no nazariyasi qadriyatlarning xulq-atvor va faoliyatga aylanish mexanizmini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi ^[7].

Ta'lim boshqaruvida axloqiy liderlik masalalari T. Sergiovanni, M. Fullan va K. Leithwood tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur olimlar samarali rahbarlikni faqat ma'muriy nazorat bilan emas, balki umumiy maqsadlar, kasbiy ishonch, jamoaviy mas'uliyat va axloqiy majburiyatlar bilan bog'laydilar ^[8; 9].

O'zbek pedagogik tafakkurida Abdulla Avloniy tarbiya, odob va mas'uliyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida baholagan ^[10].

O. Musurmonova va M. Qurbonov tadqiqotlarida milliy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar hamda yoshlar kamoloti masalalari tahlil qilingan ^[11; 12].

Mavjud ilmiy ishlarda qadriyat, pedagogik kompetensiya, rahbarlik madaniyati va ma'naviy tarbiya masalalari alohida yo'nalishlarda yetarli darajada o'rganilgan. Biroq maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini aynan mezonlar, ko'rsatkichlar, darajalar va diagnostik vositalar birligi asosida baholash masalasi kompleks tarzda kam yoritilgan. Shu bois mazkur tadqiqot aksiologik kompetensiyani operatsionallashtirishga, ya'ni nazariy tushunchani o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar tizimiga aylantirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari, indikatorlari, darajalari va metodlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- aksiologik kompetensiyaning pedagogik-boshqaruv mazmunini aniqlashtirish;
- diagnostika tamoyillarini asoslash;
- kompetensiyaning asosiy tarkibiy komponentlarini ajratish;
- har bir komponentga mos mezon va indikatorlarni ishlab chiqish;
- diagnostik metodlar majmuasini tavsiflash; natijalarni integrativ baholash hamda rivojlanish darajalarini belgilash;
- diagnostika natijalaridan malaka oshirish va individual kasbiy rivojlanishda foydalanish yo'llarini ko'rsatish.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, tizimlashtirish, modellashtirish, pedagogik kuzatish, ekspert baholash, so'rovnoma, keys tahlili, o'zini o'zi baholash hamda refleksiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Aksiologik kompetensiya direktor o'rinbosarining kasbiy faoliyatida qadriyatlarni anglash, tanlash, himoya qilish va amaliy boshqaruv qarorlariga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi. Uning tuzilishida bilim, motiv, munosabat, faoliyat, kommunikatsiya va refleksiya o'zaro uzviy bog'langan. Shu sababli diagnostika birgina ko'rsatkichga emas, balki bir nechta mezonning uyg'unligiga tayangan holda tashkil etilishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Diagnostika jarayonida obyektivlik, komplekslik, tizimlilik, rivojlantiruvchanlik, konfidensiallik hamda kontekstga moslik tamoyillariga rioya etish muhimdir. Obyektivlik turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'zaro qiyoslashni talab qiladi. Komplekslik bilim va qarashlar bilan bir qatorda real xulq-atvorni ham o'rganishni nazarda tutadi. Tizimlilik diagnostikaning bir martalik tadbir emas, balki boshlang'ich, oraliq va yakuniy o'lchovlardan iborat uzluksiz jarayon ekanligini anglatadi. Rivojlantiruvchanlik natijalarning rahbari ayblash uchun emas, balki uning kasbiy o'sish yo'nalishini belgilash maqsadida qo'llanilishini talab etadi.

Direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini baholash uchun beshta mezonni ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi mezon – kognitiv-aksiologik mezon. U rahbarning qadriyatlar, aksiologik yondashuv, pedagogik etika, inson huquqlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi bilimlari hamda ularni boshqaruv kontekstida izohlay olish darajasini ifodalaydi. Ushbu mezonning indikatorlariga qadriyatlar ierarxiyasini anglash, pedagogik vaziyatdagi axloqiy muammoni ajrata olish, qabul qilinayotgan qarorning ehtimoliy ma'naviy oqibatlarini oldindan ko'ra bilish hamda normativ talablar bilan axloqiy mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntira olish kiradi. Mazkur mezonni aniqlashda test, tushunchalarni izohlash, muammoli savollar hamda yozma tahlildan foydalanish mumkin.

Ikkinchi mezon – motivatsion-qadriyatli mezon. Mazkur mezon rahbarning adolat, mas'uliyat, insonparvarlik, halollik, xizmat qilish va kasbiy burch kabi qadriyatlarga nisbatan ichki munosabatini aks ettiradi. Bunda qadriyatlarning faqat so'zda e'tirof etilishi emas, balki ularning kasbiy maqsad va motivlar bilan uyg'unlashganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Indikatorlar sifatida jamoa manfaatini shaxsiy qulaylikdan ustun qo'ya olish, murakkab vaziyatlarda axloqiy pozitsiyani saqlash, o'quvchi va pedagogning qadr-qimmatini himoya qilishga tayyorlik, qabul qilingan qaror uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish hamda o'z kasbiy faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash belgilanadi. Ushbu mezonni diagnostika qilishda qadriyatlar reytingi, motivatsion so'rovnoma, tugallanmagan gaplar metodikasi hamda intervyudan samarali foydalaniladi.

Uchinchi mezon – faoliyatli-boshqaruv mezoni. U qadriyatlarning amaliy qarorlar qabul qilish, rejalashtirish, nazorat, rag'batlantirish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida namoyon bo'lishini baholaydi. Indikatorlar qatoriga qaror qabul qilishda manfaatdor tomonlarning fikrini hisobga olish, vazifalarni adolatli taqsimlash, baholashda shaffof mezonlardan foydalanish, o'quvchi manfaatini ustuvor qo'yish, bosim ostida ham axloqiy me'yorlarga rioya qilish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq qadriyatlar bilan bog'lash kiradi. Mazkur mezon keys-stadi, vaziyatli topshiriqlar, amaliy faoliyatni kuzatish, hujjatlar tahlili hamda ekspert bahosi orqali o'rganiladi.

To'rtinchi mezon – kommunikativ-axloqiy mezon. Direktor o'rinbosarining qadriyatlarga asoslangan muloqoti uning jamoada o'zaro ishonch va samarali hamkorlik muhitini yaratish qobiliyatini namoyon etadi. Asosiy indikatorlar sifatida suhbatdoshning qadr-qimmatini hurmat qilish, faol tinglash, kamsituvchi va tahdidli

usullardan voz kechish, nizolarni hal etishda xolislikni saqlash, tanqidni pedagogik odob doirasida ifodalash, turli fikrlarga bag'rikeng munosabatda bo'lish hamda maxfiy ma'lumotlarni saqlash belgilanadi. Ushbu mezon 360 darajali baholash, pedagoglar va ota-onalar so'rovi, muloqot jarayonini kuzatish, rolli o'yinlar hamda nizoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Beshinchi mezon – refleksiv-rivojlantiruvchi mezon. U rahbarning o'z qarorlari, qadriyatli pozitsiyasi hamda boshqaruv uslubini tahlil qila olishi, xatolarini tan olishi va kasbiy takomillashuv rejasini ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Indikatorlar sifatida o'zining kuchli va zaif jihatlarini xolis baholash, qabul qilingan qarorlarning kutilmagan oqibatlarini tahlil qilish, qayta aloqani qabul qilish, kasbiy muammolarga mos o'quv maqsadlarini belgilash, yangi tajribani amaliyotga tatbiq etish hamda shaxsiy rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish belgilanadi. Refleksiv kundalik, portfolio, o'zini o'zi baholash varaqasi, rivojlanish rejasini ekspertiza qilish hamda suhbat ushbu mezonni baholashning muhim vositalari hisoblanadi.

1-jadval: Aksiologik kompetensiyani diagnostika qilish mezonlari

Mezon	Asosiy indikatorlar	Tavsiya etiladigan diagnostik vositalar
Kognitiv-aksiologik	Qadriyatlar mazmunini bilish; axloqiy muammoni aniqlash; qaror oqibatlarini baholash	Test, muammoli savollar, yozma tahlil
Motivatsion-qadriyatli	Adolat va mas'uliyatga ichki yo'nalganlik; kasbiy burch; inson qadrini himoya qilish	So'rovnoma, qadriyatlar reytingi, intervyu
Faoliyatli-boshqaruv	Shaffof qarorlar; adolatli taqsimot; manfaatlarni muvofiqlashtirish; axloqiy barqarorlik	Keys-stadi, kuzatish, hujjatlar tahlili, ekspert bahosi
Kommunikativ-axloqiy	Hurmatli muloqot; faol tinglash; xolislik; bag'rikenglik; maxfiylik	360 darajali baholash, so'rovnoma, rolli o'yin
Refleksiv-rivojlantiruvchi	O'zini tahlil qilish; xatolarni tan olish; qayta aloqa; individual rivojlanish rejasi	Portfolio, refleksiv kundalik, o'zini o'zi baholash, suhbat

Diagnostika jarayoni tayyorgarlik, ma'lumot to'plash, integrativ tahlil, qayta aloqa hamda rivojlantirish bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin. Tayyorgarlik bosqichida diagnostikaning maqsadi, etik qoidalari, baholash mezonlari hamda natijalardan foydalanish tartibi ishtirokchilarga batafsil tushuntiriladi. Bu jarayon rahbarlarda xavotir yoki himoyalanih reaksiyasini kamaytirib, haqqoniy javoblar olishga xizmat qiladi. Ma'lumot to'plash bosqichida kamida uch turdagi manbadan foydalanish maqsadga muvofiq: rahbarning o'zini o'zi baholashi, faoliyatni bevosita yoki bilvosita kuzatish hamda hamkasblar, pedagoglar, ota-onalar yoki ekspertlarning baholari. Turli manbalar o'rtasidagi moslik diagnostik xulosalarning ishonchligini oshiradi. Masalan, rahbar o'z kommunikativ madaniyatini yuqori baholagan bo'lsa, jamoa so'rovida buning aksi kuzatilishi rivojlanish uchun muhim signal hisoblanadi.

Integrativ baholashda har bir mezon bo'yicha natijalarni alohida tahlil qilish bilan bir qatorda ularning o'zaro uyg'unligi ham hisobga olinadi. Kognitiv bilimlarning yuqori bo'lishi, faoliyatli-boshqaruv ko'rsatkichlari past bo'lgan sharoitda aksiologik kompetensiyaning barqaror shakllanganligini anglatmaydi. Shuningdek, motivatsiya yuqori bo'lsa-da, refleksiya va kommunikativ ko'nikmalar zaif bo'lsa, rahbar qadriyatlarni amaliyotga izchil tatbiq eta olmaydi. Shu sababli yakuniy natija oddiy arifmetik ball ko'rinishida emas, balki kompetensiyaning ichki muvozanatini aks ettiruvchi profil shaklida taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Diagnostika natijalariga ko'ra uch daraja ajratilishi mumkin. Quyi darajada rahbar qadriyatlarni umumiy tushuncha sifatida biladi, biroq ularni real boshqaruv vaziyatlariga tatbiq etishda qiyinchilikka duch keladi; qarorlari ko'proq tashqi talablar, buyruqlar va vaziyat bosimiga bog'liq bo'ladi. O'rta darajada qadriyatli qarashlar shakllangan bo'lib, ayrim vaziyatlarda adolatli va insonparvar qarorlar namoyon bo'ladi, biroq izchillik hamda refleksiv barqarorlik yetarli darajada emas. Yuqori darajada esa rahbar qadriyatlarni ongli ravishda boshqaruv maqsadlariga integratsiya qiladi, murakkab vaziyatlarda axloqiy pozitsiyasini saqlaydi, jamoada ishonch muhitini yaratadi va o'z faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib boradi.

Qayta aloqa individual, dalillarga asoslangan hamda rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi lozim. Rahbarga faqat umumiy ballni ma'lum qilish emas, balki har bir mezon bo'yicha uning kuchli tomonlari, xavf zonolari va amaliy tavsiyalarini ko'rsatish zarur. Shu asosda qisqa muddatli hamda istiqbolli individual rivojlanish rejasi tuziladi. Masalan, kommunikativ-axloqiy mezon bo'yicha natija past bo'lsa, nizolarni boshqarish, faol tinglash hamda mediatsiyaga oid treninglar tavsiya etiladi. Refleksiv mezon yetarli darajada rivojlanmagan



bo'lsa, kasbiy kundalik yuritish, mentorlik va muntazam superviziya samarali vositalar hisoblanadi. Taklif etilgan mezonlar tizimining muhim afzalligi shundaki, u aksiologik kompetensiyani mavhum axloqiy sifat sifatida emas, balki kuzatish va baholash mumkin bo'lgan kasbiy hodisa sifatida talqin etadi. Mezonlar rahbarning "nimani bilishi", "nimani qadrlashi", "qanday qaror qabul qilishi", "qanday muloqot qilishi" va "o'zini qanday rivojlantirishi" kabi savollarga javob beradi. Bu esa diagnostik xulosaning bir tomonlama bahoga asoslanishining oldini oladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, aksiologik kompetensiyaning eng murakkab jihati deklarativ qadriyatlar bilan real faoliyat o'rtasidagi tafovutni aniqlashdan iborat. Ko'pchilik rahbarlar adolat, halollik va insonparvarlikni muhim qadriyatlar deb hisoblaydi. Biroq vaqt tanqisligi, yuqori boshqaruv bosimi, jamoaviy ziddiyatlar yoki shaxsiy manfaatlar ustuvor bo'lgan vaziyatlarda qadriyatlarga sodiqlik sinovdan o'tadi. Shu sababli diagnostika jarayonida ideal javobni tanlash imkonini beruvchi so'rovnoma bilan cheklanib qolmasdan, murakkab va muqobil yechimlarga ega keyslardan ham foydalanish zarur.

Yana bir muhim masala diagnostikaning madaniy va institutsional kontekstga mosligidir. Milliy qadriyatlar, mahalla va oila bilan hamkorlik, kattalarga hurmat hamda jamoaviylik kabi omillar maktab boshqaruvida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, qadriyatlarning milliy mazmuni inson huquqlari, adolat, tenglik va bolalar manfaatlarini himoya qilish kabi umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'un holda talqin qilinishi lozim. Aks holda, qadriyat tushunchasi avtoritar talablarni yoki biryozlama itoatni asoslash vositasiga aylanishi mumkin.

Diagnostika jarayonining etik jihati ham alohida e'tiborni talab qiladi. Natijalarning oshkor etilishi, rahbari kamsitish yoki ularni lavozimiy bosim vositasiga aylantirish diagnostikaning haqqoniyligiga zarar yetkazadi. Ishtirokchi diagnostika natijalarining maqsadini, ular kim tomonidan ko'rilishini va qanday qarorlar qabul qilishda foydalanilishini oldindan bilishi kerak. Konfidensiallikni ta'minlash va ixtiyoriy qayta aloqa mexanizmini joriy etish diagnostik madaniyatni shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

Mezonlar tizimini amaliyotga joriy etish malaka oshirish dasturlarini individuallashtirish imkonini beradi. Umumiy mazmundagi ma'ruzalar o'rniga diagnostik profilga mos treninglar, mentorlik, amaliy keyslar va refleksiv topshiriqlar tanlanadi. Natijada malaka oshirish "barcha uchun bir xil" tamoyilidan kasbiy ehtiyojlarga asoslangan rivojlantirish modeliga o'tadi. Bu jarayon direktor o'rinbosarining o'zini nazorat qilish, qarorlarini axloqiy jihatdan tahlil qilish hamda maktab jamoasida qadriyatlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantirish salohiyatini oshiradi.

Shunday qilib, aksiologik kompetensiyani diagnostika qilishning ishonchligi mezonlarning aniq belgilanishi, metodlarning xilma-xilligi, manbalar triangulyatsiyasi, etik talablarga rioya etilishi hamda natijalarning rivojlantirish jarayoni bilan bog'lanishiga bevosita bog'liq. Mazkur shartlar bajarilganda diagnostika maktab rahbarlarini nazorat qiluvchi vositadan ularning professional va ma'naviy o'sishini qo'llab-quvvatlovchi samarali mexanizmga aylanadi.

XULOSA

Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish maktab boshqaruvining ma'naviy-axloqiy sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Tadqiqot natijasida aksiologik kompetensiya qadriyatlar haqidagi bilimlar, ichki qadriyatli yo'nalganlik, boshqaruv faoliyati, axloqiy kommunikatsiya va refleksiv rivojlanishning birligidan iborat integrativ kasbiy sifat sifatida asoslandi.

Birinchidan, aksiologik kompetensiyani baholash uchun kognitiv-aksiologik, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-boshqaruv, kommunikativ-axloqiy va refleksiv-rivojlantiruvchi mezonlardan iborat besh komponentli tizim ishlab chiqildi.

Ikkinchidan, har bir mezonning kuzatiladigan indikatorlari hamda ularga mos diagnostik vositalar belgilandi.

Uchinchidan, test va so'rovnoma natijalarini keyslar, kuzatish, ekspert bahosi, 360 darajali qayta aloqa, portfolio va refleksiv materiallar bilan uyg'unlashtirish diagnostikaning ishonchligini oshirishi aniqlandi.

To'rtinchidan, natijalarni quyi, o'rta va yuqori darajalarda talqin etish rahbarning aksiologik rivojlanish profilini tuzish imkonini beradi.

Beshinchidan, diagnostika natijalarini individual malaka oshirish rejalari, mentorlik, treninglar va kasbiy refleksiya bilan bog'lash uning rivojlantiruvchi ahamiyatini ta'minlaydi.

Ilmiy-amaliy jihatdan taklif etilgan mezonlar tizimi direktor o'rinbosarlarining qadriyatlarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlash, maktabdagi axloqiy liderlik salohiyatini baholash hamda boshqaruv madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur diagnostik modelni tajriba-sinovdan o'tkazish, indikatorlarning statistik ishonchligini tekshirish va uni hududiy xususiyatlarga moslashtirish tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Scheler, M. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values. Evanston: Northwestern University Press, 1973.
2. Hartmann, N. Ethics. London: George Allen & Unwin, 1932.
3. Rokeach, M. The Nature of Human Values. New York: Free Press, 1973.
4. Schwartz, S. H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. Online Readings in Psychology and Culture, 2012.
5. Slastenin, V. A., Isaev, I. F., Shiyanov, E. N. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2013.
6. Ravkin, Z. I. Pedagogicheskaya aksiologiya: teoriya i praktika. Moskva, 2000.
7. Leontyev, D. A. Psikhologiya smysla: priroda, stroenie i dinamika smyslovoy realnosti. Moskva: Smysl, 2003.
8. Sergiovanni, T. J. Moral Leadership: Getting to the Heart of School Improvement. San Francisco: Jossey-Bass, 1992.
9. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. New York: Teachers College Press, 2007.
10. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
11. Musurmonova, O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
12. Qurbonov, M. Milliy tarbiya va ma'naviy qadriyatlar. Toshkent: Fan, 2018.
13. Dewey, J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
14. Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.